

Lecture 8. COMPANIES AS A MAIN SUBJECT OF REALISATION NOVATIONS

Ma'ruza 8. KORXONA – INNOVATSIYALARNI JORIY QILUVCHI AMALGA OSHIRUVCHI SUBYEKT SIFATIDA. KORXONADA YANGI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYANI YARATISH, O'ZLASHTIRISH VA SIFATINI BOSHQARISH

1. Mahsulot hayotiylik davri ishlarini boshqarish

Mahsulot hayotiylik davri – bu g'oyani yangi texnikaga aylanishi, iste'molchilar talablarini ta'minlanishi uchun ketadigan bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. U yagona texnik topshiriq asosida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlari, o'z navbatida, bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- texnik topshiriqni ishlab chiqish;
- izlanish yo'nalishlarini belgilash;
- nazariy va eksperimental izlanish;
- natijalarni o'zlashtirish va baholash.

Texnik topshiriqni ishlab chiqish ilmiy tadqiqot ishlari uchun majburiy hisoblanib, unda ilmiy tekshirish ishlarining maqsadi, uning mazmuni, ishlarni bajarish tartibi va muddati, natijalarini realizatsiya qilish usullari ko'rsatilgan. Texnik topshiriq buyurtmachilar bilan kelishib olinadi. Tugallangan ilmiy tadqiqot ishlari ilmiy texnik kengashda muhokama qilinadi. Bu yerda xulosalarning asoslanganligiga e'tibor qaratilib, takliflar eshitiladi, kelgusida ishni davom ettirish uchun qarorlar qabul qilinadi.

Hayotiylik davrni ikkinchi bosqichi – tajriba konstruktorlik ishlaridir. Bu bosqichda konstruktorlik hujjatlari, texnik takliflar, texnik loyiha eskizi, ishchi hujjatlar, tajriba konstruktorlik hujjatlari, mahsulotni namuna nusxasi ishlab chiqiladi va texnologik qurilmalar yaratiladi.

Maxsus tuzilgan vakolatli komissiya tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklar tugatilib, mahsulotning namuna nusxasini qabul qilish dalolatnomasi to'ldirilganidan so'ng mahsulot qabul komissiyasi tarkibiga ishlab chiqaruvchi, mahsulot yaratuvchi va iste'molchilar vakillari kiritiladi.

Hayotiylikni keyingi davrini ishlab chiqarishni tayyorlash va ko'zlangan quvvatga chiqish hisoblanib, unga ishlar amalga oshirilganidan so'ng quvvatga chiqishga erishiladi:

- qurilmani tekshirish va ishga tushirish;
- belgilangan mahsulotni ishlab chiqarish;
- mahsulot ishlab chiqarish yuzasidan ilmiy sinov o'tkazish;
- texnologik va boshqa hujjatlarga tuzatmalar kiritish va tugallash.

Yuqorida ko'rsatilgan ilmiy tadqiqot, tajriba konstruktorlik ishlari, mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash va belgilangan quvvatga chiqish ishlab chiqarishni dastlabki fazasi hisoblanadi. Bu yerda mahsulot shakllanadi, sifati belgilanadi, uning yangiligi va texnik darajasi baholanadi.

Hayotiylikning keyingi bosqichi – yaratilgan buyurtma asosida yangi mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdir.

Hayotiylik davrining yakuniy bosqichi yangidan yaratilgan ishlab chiqarishni iste'molchi va buyurtmachilar tomonidan yo'lga qo'yish hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar orasidagi o'zaro munosabatlar mahsulot yetkazib berish shartnomasida o'z aksini topadi.

Yangilikni yaratilish jarayonida ilmiy ta'minot darajasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Asosan shu bosqichda loyiha konstruktorlik ishlari asosida yangilik kiritish imkoniyatlari yuzaga keladi va ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Bu yerda ilmiy tadqiqot va loyihalashtirish ishlarini avtomatlashgan tizimini yo'lga qo'yish muhimdir.

U quyidagi imkoniyatlarga sharoit yaratib beradi.

- ilg'or loyihalarni to'la qo'llash;
- ish vaqtini qisqartirish;
- loyiha ma'lumotlarini bir qismini oraliq rasshirovkasi eksperimental ishlab chiqarishga bevosita uzatish;
- mahsulot konstruksiyasi va texnologiyasi variantlarini kompyuter yordamida ishlab chiqish;
- mahsulot va uning bo'laklarini sinovini o'tkazish.

Barcha bosqichlar bir biri bilan uzviy bog'liq. Shu boisdan hayotiylik davrini boshqarishda kompleks yondashish zarurdir.

2. Funksional qiymat tahlili

Har qanday ob'yektning barcha hayotiylik bosqichlarini tugallanganligini nazorat qilishning usullaridan biri – funksional qiymat tahlili hisoblanadi.

Funksional qiymat tahlili – ob'yektning foydali funksiyalarini rivojlantirish maqsadida undan foydalanish va uni amalga oshirish harajatlarini optimal munosabatlari doirasida olib borilgan kompleks texnik iqtisodiy tadqiqot hisoblanadi.

Hozirda u usul AQSH, Angliya, Fransiya va boshqa bir qator iqtisodiyotga bozor mexanizmlari orqali rivojlanayotgan davlatlarning sanoat kompaniyalarida keng qo'llanilmoqda.

Mahsulot ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishni, odatda, ularning iste'mol xususiyatlari, texnik funksiyalarini tahlil qilishdan boshlamoq kerak. Bu usul ilk bor 1947 – yilda “Djeneral elektroniks” kompaniyasida qo'llanilgan bo'lib, uning diqqat markazida yaratilgan yangi mahsulot qay darajada harajatlarni qoplaydi, uning xususiyatlari iste'molchi talabini qondiradimi? – degan savol turadi. Tovar ishlab chiqarish uchun ma'lum bir darajada harajat talab qilinadi, shuning uchun ham tovarning foydalilik xususiyati uni yaratishga qilingan harajat orasida zarur nisbat bo'lishi muhimdir.

Shuni esda tutish lozimki, tovarning barcha xususiyatlari ham doimo foydali bo'lavermaydi. Shu tufayli eyzenxauer tomonidan yaratilgan tamoyil asosida tahlil o'tkazish maqsadga muvofiqdir. U vazifalarni, uning ahamiyati va bajarilish zaruriyatiga qarab quyidagicha ajratib olish darkor deb ta'kidlaydi:

- A – juda muhim va tez bajariladigan topshiriq;
- V – muhim, ma'lum muddatda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq;

- S – ahamiyati kamroq bo'lgan, ammo tez bajarilishi kerak bo'lgan topshiriq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “A” – asosiy bosh funksiya, “V” – ikkinchi

darajali funksiya, “S” – ortiqcha kerak bo'lmaydigan funksiyalarni farqlab olish ham muhimdir.

Shunday ekan barcha harakatlar asosiy funksiyani, shuningdek, ikkinchi darajali funksiyalarni bajarishiga qaratishimiz lozim. “S” ortiqcha funksiyani esa bartaraf etish kerak. Bu, o'z navbatida, harajatni, kamayishiga olib keladi.

Funksional qiymat tahlilining ob'yekti mahsulotning iste'mol xususiyatlari yoki ularning ayrim qismlari hisoblanadi.

Mahsulotning iste'mol xususiyatlarini, ularni tashkil etuvchi qismlari texnik funksiyasi va u bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni har tomonlama, chuqur tahlil qilishni bir mutahassisning o'zi amalga oshira olmaydi. Shu tufayli funksional qiymat tahlili o'tkazilganda turli soha mutahassislari jalb etish maqsadga muvofiqdir. Bu mutahassislar mahsulotni yaratuvchilar, uni ishlab chiqaruvchilar, marketing, sotish hamda konstruktorlik byurosi xodimlari va boshqalardan tashkil topishi mumkin. Ular bozor talablarini hisobga olgan holda istiqbolli yangiliklarni taklif etadilar, yaratilgan yangi mahsulotning tashqi ko'rinishini ishlab chiqadilar, bo'lg'usi mahsulotning estetik va ergonometrik talablarini o'rganadilar. Iqtisodchilar mutaxassislar esa mahsulot tannarxini aniqlaydi, marketing va sotish bo'limi mutaxassislari mahsulotning iste'mol xususiyatlari, raqib firmalar holati kabi ma'lumotlarni tahlil etadilar.

Mahsulot sifatini ortishi va uning tannarxini pasaytirish bo'yicha muammolar faqatgina jamoa o'rtasida har tomonlama puxta tahlil etilishi orqali hal etilishi mumkin.

Funksional qiymat tahlili bilan shug'ullanuvchi analitik guruhga korxonalar rahbarlaridan biri boshchilik qilishi mumkin. Guruhning asosiy vazifasi funksional qiymat tahlili ob'yekti hisoblangan mahsulotni o'rganishdir. Guruhni shakllantirish o'ta ma'suliyatli ish hisoblanib, undagi xodimlar soni korxonaning katta kichikligi, ish hajmi va davriyligiga bevosita bog'liq. Guruh haftada bir yoki ikki marotaba yig'ilib, holatni tahlil etadi, kelgusida rejalarni belgilab oladi.

Funksional qiymat tahlili bilan yuqori malakali mutaxassislardan tashkil topgan mahsus guruh shug'ullanadi. Bu, o'z navbatida, muammoni har tomonlama chuqur va to'g'ri baholash imkoniyatini yanada orttiradi.

Tadqiqotchi guruh qatnashchilari soni odatda 5- 8 kishini tashkil etadi.

Guruh rahbari aniq maqsadni belgilab, uning har bir a'zosi uchun aniq vazifa qo'yish kerak.

Qatnashuvchilar birinchi yig'ilishda guruh oldida turgan ishning mazmuni, mohiyati va ahamiyati bilan tanishadilar, kelgusi rejalarni belgilab oladilar.

Yig'ilishlar samarasi guruh rahbarining xatti – harakatiga bevosita bog'liq, uni o'tkazishga yaxshi tayyorgalik ko'rilishi va uni ishbilarmonlik ruhida o'tkazilishi muhim ahamiyatga ega.

Funksional qiymat tahlili o'tkazilishida maslahatchilar ham taklif etilishi mumkin. Ularga ilmiy xodimlar, oily o'quv yurtlari professor o'qituvchilari kiritilishi mumkin.

Funksional qiymat tahlilining asosiy maqsadi – bajarilayotgan ish sifatini yaxshilagan holda ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishdan iboratdir.

Funksional qiymat tahlili boshlang'ich, axborot, analitik, tadqiqot, tavsiya va tatbiq etish kabilardan iborat bo'lgan bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich bosqichda tahlil ob'yekti aniqlab olinadi.

Axborot bosqichda o'rganilayotgan ob'yekt yuzasidan ko'zlangan maqsad, texnik imkoniyatlar, sifat va tannarx bo'yicha zaruriy ma'lumotlar to'planadi.

Analitik bosqichda mahsulot funksiyasi va uni ta'minlash harajatlari atroflicha o'rganiladi.

O'rganish jarayonida quyidagi savollar mazmunan ko'rib chiqiladi:

- qanday mahsulot;
- uning funksiyasi qanday;
- qaysi funksiya foydali yoki qaysi biri ortiqcha;
- mahsulotning hozirgi qiymati qanday;
- mahsulot qanday bo'lishi kerak;
- uning yangi qiymati qanday bo'lgani ma'qul va shu tariqa o'rganiladi.

Tadqiqot bosqichida g'oyaga baho beriladi va yechim variantlari aniqlanadi.

Tavsiya bosqichida eng qulay variant ajratib olinadi.

Joriy etish bosqichi hal qiluvchi bosqich hisoblanadi, tavsiya etilgan variant amaliyotga tatbiq etiladi.

3. Yangi texnika va texnologiyani ishlab chiqarish jarayonini tayyorlashni boshqarish

Yangi texnikani ishga tushirishga tayyorlash kompleks harakterga ega bo'lib, ushbu jarayonni sxema tarzida quyidagicha ifodalash mumkin. (rasmga qarang)

Ishlab chiqarishga tayyorlashni boshqarish funksional menedjer tomonidan boshqarilib, u ichki va tashqi jarayonga bo'linadi.

Tashqi tayyorgarlik jarayonini ilmiy tekshirish institutlari, konstruktorlik byurolari va boshqa tashkilotlar amalga oshiradi. Ichki tayyorgarlik esa bevosita korxonaning o'zida amalga oshiriladi. Yangi konstruksiya yangi texnikaga bo'lgan talabdan kelib chiqib shakllanadi.

Yangi ishlanmalarni vujudga keltirish, yangi yaratiladigan texnikaga iste'molchilar tomonidan qo'yiladigan barcha talablarni hisobga olgan tahlil natijalariga asoslanadi.

Mahsulot konstruksiyasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- zaruriy hisob – kitoblarni bajarish;
- tajriba – sinov ishlari;
- loyihalash va konstruksiyalash;
- sinov nusxasini tayyorlash;
- loyiha – konstruktorlik hujjatlariga o'zgartirish va tuzatmalar kiritish.

Shundan so'ng quyidagilarni ichiga olgan ishlab chiqarish texnologiyasi tayyorlanadi:

- Texnologik jarayon hujjatlarini tuzish;
- Maxsus texnologik qurilmani loyihalash va tayyorlash;

Keyingi bosqich yangi texnika ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdan iborat bo'lib, u quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- Yetkazib berish;
- O'rnatish;
- Texnik yoritkichlarni sozlash;
- Yalpi va seriyali ishlab chiqarishni sinash va qabul qilish.

Bu jarayonlarni, odatda, korxonada menejerlari nazorat qiladi.

Yangi texnikani ishlab chiqarishga joriy etishning har bir bosqichida ma'lum tadbirlar amalga oshiriladi.

Konstruktorlik tayyorgarlikning mazmuni va hajmi yaratilayotgan mahsulot yangiligi va murakkabligiga bog'liq bo'ladi.

Ishlab chiqarishni konstruktorlik tayyorgarligi har bir ob'yekt bo'yicha kompleks muhandislik – texnik qarorlar ishlab chiqarishni yangi mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirish va uni doimiy yo'lga qo'yishni ta'minlovchi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

U muhandislik bashorati, ob'yekt o'lchamlarining optimalligi, funksional qiymat tahlilidan foydalangan holda bajarilgan tajriba konstruktorlik ishlari, mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasini qamrab oladi.

Muhandislik bashorati innovatsion mendjer bilan hamkorlikda bashorat qilingan davrda qanday yangiliklar yuzaga kelishi haqida ma'lumot olish maqsadida amalga oshiriladi. Bu bosqichda yangi mahsulotni sanoat ishlab chiqarishga joriy etish va yangi texnik qarorlarni, materiallarni, texnologiyani yangilanish va tarqalish sur'ati hamda ko'lami aniqlanadi.

Obyektni rivojlantirish bo'yicha zaruriy cheklanishlar belgilanadi. O'lchamlarni optimallashtirish – bu ishlab chiqariladigan mahsulotni o'lchamlarni optimallashtirish bilan bog'liq jarayon bo'lib, bu bosqichda mahsulot ishlab chiqarishning optimal hajmi aniqlanadi.

Konstruktsiyani texnologik jihatdan ta'minlash – bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ko'zlangan sifatga erishilishidagi talablardir.

Uni baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Tayyorlanayotgan mahsulotni mehnat sig'imi norma/soatda ifodalanadi. Bu mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan mehnat harajatlarini sarflangan vaqtga nisbati bilan aniqlanadi.

2. Mahsulotning material sig'imi – bu mahsulot ishlab chiqarish uchun material sarflarni, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbatan aniqlanadi.

Bu ko'rsatkichlar standart(andoza)da belgilangan darajaga nisbatan taqqoslash yo'li orqali topiladi. Yangi mahsulot yaratish va uni sifatini nazorat qilish quyidagi sxemada keltirilgan.

Ishlab chiqarishni texnologik jihatdan ta'minlash – texnologik jarayonlarni tayyorlash bilan bog'liq barcha tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu yerda menedjer konstruktor bilan texnolog faoliyatini uzviyligini ta'minlashi shart.

Texnologik jarayon ikki turga bo'linadi: namunaviy va istiqbolli.


Namunaviy texnologik jarayonning harakterli tomoni shundaki bunda ko'pchilik operatsiyalar mazmunan o'xshash va ularning bajarilishi ketma – ketligi bir – biriga yaqin bo'ladi.

Istiqbolli texnologik jarayon ishlab chiqarishni halqaro darajadan o'zib ketishini anglatadi.

Texnologik jarayonlarni loyihalashni boshqarish ma'muriy va operatsion texnologik jarayonlar bilan amalga oshiriladi.

Ma'muriy texnologik jarayon marshrut kartasi orqali rasmiylashtirilib, bunda o'tkaziladigan tadbir turi uning ketma – ketligi ko'rsatilgan bo'ladi.

Operatsion texnologik jarayon – bu ishlab chiqarishdagi alohida olingan tadbirlar, masalan: qayta ishlash, yig'ish va boshqa shu kabilarni anglatadi.



1- rasm. **Korxonani sifat borasidagi siyosati**

Texnologik jarayonlarni boshqarishni tashkiliy tuzilishi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- texnologik jarayonlarni tayyorlash xizmatlari orasida vazifalarni oqilona taqsimlash;

- hujjat aylanishini to'g'ri yo'lga qo'yish;

- yangi vazifalarni hal etishni tez ang'lay olish imkoniyati;

- funksiyalarni takrorlanishini oldi olinishi;

- reja asosida ishlab chiqarishni texnik tayyorlash quyidagi ma'lumitlarni o'z ichiga oluvchi reja asosida tashkil etish;

- ish hajmi, tarkibi va muddati;

- ishlab chiqarish bo'limlari orasida vazifalarni taqsimlanishi;

- ishni oqilona tashkil etish, muddatni qisqartirish imkoniyatlarini hisobga olinganligi va hokazolar.

Yangi texnikani ishlab chiqishning barcha tizimi yangi mahsulotni raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilishi lozimdir.

4. Yangi mahsulotning texnik darajasi va sifatini boshqarish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotni ishlab chiqaruvchi bilan uni iste'mol qiluvchining huquqlari teng. Ular bozorda o'z o'rinlarinin o'zlari topadilar. Ularning faoliyatidagi asosiy ko'rsatkich talabning to'la qondirilishi va erishilgan moliyaviy natija orqali namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqaruvchi va iste'molchining o'zaro munosabati bozor belgilab beruvchi moliyaviy va baho kriteriyalari orqali amalga oshiriladi. Ammo unutmazlik kerakki, iste'molchi yangilikni tanlashda ustunlikka ega bo'ladi. Faqat iste'molchigina mahsulotning iste'molning qondirishdagi xususiyatini tanlab oladi.

Shu sababli ishlab chiqarilgan mahsulot sifatiga iste'molchining talabini qondirish bosh omil sifatida qaraladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati innovatsion menejmentning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Chunki mahsulot sifatining ortishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yuksalishi, ishlab chiqarish samaradorligining ortishi, barcha turdagi manbalarni iqtisod qilinishini anglatib, firmalarni muvaffaqiyatli faoliyat olib borishini belgilovchi ko'rsatkichdir.

Sifatni boshqarish – mahsulotni yaratish, iste'mol qilish va undan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan.

Sifat falsafiy atama bo'lib, ob'yektning ichki holatini ifoda etadi. Sifatning iqtisodiy ta'rifi – bu bizning mahsulotga ehtiyojlarimizni ta'minlovchi xususiyatlar majmuidir.

Sifat tushunchasi, mahsulotning texnik darajasi, tovarni raqobatbardoshligi va uning sifat ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq.

Mahsulot sifati ko'rsatkichlarini uning quyidagi belgilari bo'yicha turlashimiz mumkin:

- ifoda etuvchi xususiyatlari bo'yicha (yagona , komplekt);

- mahsulotning turli chidanliligi, texnologi, yergonomik va boshqa xususiyatlariga nisbatan munosabati bo'yicha;

- sifatni aniqlash bosqichlari (loyiha, ishlab chiqarish va foydalanish) bo'yicha;

- sifat darajasini bera olish xususiyati bo'yiocha;

- sifatni ifoda etish usuli(ball, foiz va miqdor) bo'yicha.

Mahsulot sifatining nisbiy tavsifnomasi – bu uning takomillashgan mahsulotning mavjud ko'rsatkichlarini bazis ko'rsatkichlariga nisbatidir.

Mahsulot sifatini alohida bitta ko'rsatkich orqali ifoda etib bo'lmasligi tufayli, bu xususiyatlarni ham guruhlariga bo'lib o'rganish zarur. Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari amaldagi umum qabul qilingan qoidalarga muvofiq uning xususiyatga mos ravishda guruhlariga bo'linadi. Bular mahsulot sifati va texnik darajasini belgilovchi quyidagi guruh ko'rsatkichlardan iborat:

1. Doimiy ishlashi, ta'mirlashga qulayligi va hokazolarni ifodalovchi – ishonchlilik va uzoq chidamlilik ko'rsatkichlari.

2. Mahsulot sifatini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar – bu mahsulotni foydalilik darajasini belgilovchi ko'rsatkichlaridir.

3. Mahsulotdan foydalanish mobaynida iste'molchilarga namoyon bo'luvchi – ishonchlilik va uzoqqa chidamlilik ko'rsatkichlari.

4. Texnologik ko'rsatkichlari – texnologik va konstruktorlik qarorlarining samaradorligi, mahsulot tayyorlash va ta'mirlashda mehnat unumdorligi darajasi.

5. Standartlash va unifikatsiyalash ko'rsatkichlari bu standart mahsulotlarni foydalanish darajasi va uning ayrim qismlarini unifikatsiyalash.

6. Ergonomik ko'rsatkichlari bu- mahsulotning «inson – mahsulot - muhit» tizimini ifoda etuvchi va insonning gigenik, ruhiy, fiziologik xususiyatlarini hisobga oluvchi ko'rsatkichlar.

7. Estetik ko'rsatkichlar- bu mahsulotlarni o'ziga jalb etuvchanligi, noyobligi, butligi uslubi kabilarni ifodalovchi ko'rsatkichlar.

8. Patent – huquq ko'rsatkichlari – mahsulotning ichki va tashqi bozorda patent himoyalanganlik darajasi, patent sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

9. Iqtisodiy ko'rsatkichlari – bu yaratish, fikrlash va foydalanish harajatlari, shu jumladan, foydalanishning iqtisodiy samarasini ko'rsatkichlardan iborat bo'lib, bu ko'rsatkichlar ichki va tashqi ko'rsatkichlarga bo'linadi.

1 – jadval

Iqtisodiy ko'rsatkichlar

Ichki ko'rsatkichlarga	Tashqi ko'rsatkichlarga
Mahsulot sifati va uni rentabelligini belgilovchi o'lchamlar kalkulyatsiyasi, iqtisodiy samara qoplash muddati, iqtisodiy samara darajasi kabilar kiradi.	Tashqi ko'rsatkichlar esa firma faoliyatiga nisbatan tashqi hisoblanib, ularga: - iste'mol narxi tarkibiga kiruvchi o'lchamlarni aniqlash; - yetkazish qiymati;

	<ul style="list-style-type: none"> - o'rnatish qiymati; - jihozlash qiymati; - energiya ta'minoti harajatlari; - xodimlarning ish haqi; - texnik xizmat ko'rsatish harajatlari; - ehtiyot qismlar qiymati; - sug'urta to'lovi; - soliq to'lovlari va hokazolar.
--	---

Hozirgi kunda mahsulot sifati va texnik darajasini aniqlashda yuqorida sanab o'tilgan an'anaviy ko'rsatkichlaridan tashqari ekologik ko'rsatkichlar xavfsizlik va tashihsga qulayligini belgilovchi ko'rsatkichlaridan ham foydalanilmoqda.

Boshqaruv ob'yekti deganda mahsulot sifatini tasnifi, ko'rsatkichlari, uning darajasiga ta'sir etuvchi omil va shartlar, shu jumladan har xil bosqichlari va mahsulot sifatini shakllantiruvchi jarayonlar tushuniladi.

Boshqaruv sub'yektlari – bu mahsulot sifatini umum qabul qilingan tamoil va usullari bo'yicha boshqaruvchi organlar yoki alohida olingan shaxslar hisoblanadi.

Mahsulot sifatini boshqarishning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- bozor ehtiyojlari, texnik daraja va mahsulot sifatini prognozlash;
- mahsulot sifati yaratishini rejalashtirish;
- mahsulotni standartlash va sifati talablarini shakllantirish;
- mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish;
- tovar hayotiyiligini, ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida mahsulot sifatini rejalashtirilgan darajasini ta'minlash;
- mahsulot sifati va sinovi;
- ish o'rni va texnologik jarayon va mahsulotni ichki attestatsiyasi;
- mahsulot, xizmat va ishlarni sertifikatlash;
- erishilgan sifati darajasini rag'batlantirish;
- mahsulot sifatini ichki hisobi va hisoboti;
- mahsulot sifati o'zgarishini texnik – iqtisodiy asoslash;
- mahsulot sifatini boshqarishni ta'minlash;
- xodimlar malakasini oshirish va ularni maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish.

Mahsulot sifatini samarali boshqarish bu – mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish va foydalanishda barcha iqtisodiy va tashkiliy dastaklaridan faol foydalanishdir.

Korxonaning sifatini boshqarish borasidagi siyosati quyidagi rasmda keltirilgan. (1- rasm)

Mahsulot sifatini nazorat qilishning asosiy maqsadi iloji boricha kam sarf – harajat qilish evaziga mahsulot sifatining yuqori darajasiga erishishdir.

Sifatni nazorat qilish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. mahsulot sifatini nazorat qiluvchi sub'yektlar;
2. texnik nazorat turlari;
3. mahsulot hayotiyiligi davrining nazorat qilinayotgan bosqichlari;

4. mahsulot sifatini nazoratini darajasi;

5. mahsulot sifati tizimi elementlari;

Samarali nazorat tizimi ko'p hollarda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati darajasiga bevosita va maqsadli ta'sir o'tkazadi, ishdagi uzilish va kamchiliklardan xabardor etadi, ularni operativ aniqlash imkonini beradi va ularni kam mablag' sarfi evaziga bartaraf etilishini ta'minlaydi.

Texnik nazorat ishlari shartli ravishda raqamlar bilan belgilangan 1 dan – 12 gacha, shundan:

1. standart mazmuni va yaratish usuli, texnik shartlar , konstruktorlik, texnologik va boshqa normativ texnik hujjatlar;

2. kooperatsiya asosida olinayotgan xom ashyo, material, yarim fabrikat butlovchi qismlar sifati;

3. o'zi ishlab chiqargan xom ashyo, material yarim fabrikat va butlovchi qismlar sifati;

4. foydalanayotgan texnik va instruktorlik halati va texnik daraja, texnologiyani ilg'orligi;

5. boshqaruv apparati xodimlari va texnologik jarayonlarni boshqaruvchilarning malaka darajasi;

6. ishchilar mehnati sifati va ishlab chiqarishni texnologik intizomi;

7. tayyorlanayotgan detallar, uning qismlari va tayyor mahsulotlar sifati;

8. idish va qadoqlash sifati, mahsulotlarni saqlash va tashish qoidalari;

9. iste'molchilarga mahsulotlarga diagnostika, texnik xizmat ko'rsatish va foydalanish qoidalari;

10. eskirgan detallarni tiklash va ta'mirlash, ehtiyot qismlari sifati;

11. nazorat vakolatiga ega bo'lgan organlar faoliyatini boshqarish.

Har bir sanab o'tgan ob'yektlar nazorati tekshirishning biror bir turiga mos keladi, boshqalaridan quyidagi belgilari bilan farq qiladi.

Nazorat qilinayotgan ob'yekt holatini baholash vositasi va aniq usullar tarkibi bilan:

- olinayotgan va qayta ishlanayotgan ma'lumotlarni davriyligi, harakteriga ko'ra;

- ta'sir ko'rstuvchi vositalar xususiyati va tarkibi;

- nazorat turlari.

Texnik nazoratni ilg'or terlarini rivojlantirish – bu brakni oldini olish yuzasidan profilaktika ishlarini amalga oshirishdir:

A) yaratish jarayonida mahsulot sifatini nazorat qilish;

B) konstruktorlik, texnologik va boshqa yangi joriy etilayotgan va modernizatsiya qilinayotgan mahsulotlar hujjatlarini normallashtirgan nazoratini qo'llash;

V) xom ashyo material, yarim fabrikatni butlovchi qism va kategoriyasi asosida olinayotgan boshqa mahsulotlarning boshlang'ich nazorati;

G) texnik tartib nazorati;

D) asosiy ishchi xodimlarni o'z – o'zini nazorat qilish.

Agar yuqorida sanab o'tilgan nazorat turlaridan samarali foydalanilsa brakning oldi olinadi, sifati, raqobatbardoshligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Abdullayev, A.E.Teshabaev va b. “Innovatsion menejment” o’quv qo’llanma. “Iqtisod-moliya” nashriyoti . 2015
2. и.ф.д., проф. Р.Р.Хасанов. Инновацион таракқиётнинг мазмуни, инновация турлари ва инновацион жараёнлар қонуниятлари. Презентации.
3. S.G’ulomov, G’.Qosimov va b. “Strategik va innovatsion menejment” darslik. Toshkent – 2013.
4. Nazarova F.X. , Ziyayeva Sh.Sh. “Innovatsion menejment”. O’quv-uslubiy majmua. Toshkent - 2018